

BIOTEXNOLOGIYALAR YUTUQLARINING ZAMONAVIY XAVFLARINI BAHOLASHNING BIOETIKA BILAN BOG'LIQ INNOVATSION USULLARI

Rahmonqulov Farhod Jo'ramurod o'g'li

Annotatsiya: Bioetika orqali biotexnologiyalar xavflarini bartaraf etishning innovatsion usullari borasida soʻz yuritiladi.

Kalitsoʻzlar: Bioetika, biotexnologiya, metodologiya, axloq.

KIRISH. Ilm-fanda mavjud axborot murosasidan bexabar holda faoliyat yuritib, jamiyat uchun kerak boʻlmagan bilimlarni yaratuvchi olimlar ham uchrab turadi. “Bunday tadqiqotlar uchun cheklovlar qoʻyish qandaydir gʻayriilmiy qarashlarga ega ekanlikni bildirmaydi.” U yoki bu ilmiy tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortish bir paytning oʻzida ham metodologik, ham siyosiy ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Agar metodologik bosh tortish mavzuda mavjud tamoyillardan kelib chiqsa, siyosiy bosh tortish mavzuning u yoki bu ijtimoiy guruhga tegishli ekani sababli boʻlishi mumkin. Xabardor holda tadqiqotlardan bosh torta olish olish imkoniyati ham olimlarning, ham oʻsha tadqiqotlarda qatnashuvchi sifatida ishtirok etayotgan individlarning huquq va majburiyatlarini qayta koʻrib chiqish imkonini beradi. Bunda bosh tortishning oʻzini haddan tashqari ideallashtirib, yoki unga romantik tus berish yaramaydi. Bunda bosh tortish yagona yoʻl emas. Xuddi tadqiqotga rozilik bildirish bilan boʻlgani kabi, undan bosh tortish ham ongli, ixtiyoriy tarzda sodir boʻlishi kerak. Yaʼni, bunda bemor nega tadqiqotdan bosh tortishganining sababini anglashi kerak.

«Bioetika tamoyillarini koʻrib chiqishda quyidagi bir vaziyatga eʼtibor qaratish talab qilinadi. Barcha uchun shartsiz, soʻzsiz amal qiluvchi axloqiy tamoyillar mavjud boʻlmaydi. Shu sababli ham maqsadimiz bioetika sohasida barcha uchun universal ahamiyatga ega boʻlgan tamoyillarni aniqlash maqsadini oldimizga qoʻymaganmiz. Bu masalani hal qilish boʻyicha ilmiy adabiyotlarda koʻplab yechimlar keltirilgan boʻlib, ulardan biri Tom Bichamp va Jeyms Childreslar tomonidan “Biotibbiy etika tamoyillari” kitobida keltirilgan».

Tibbiy axloq sohasidagi eng qadimiy tamoyillardan biri bu “ziyon yetkazma” deb atalishi mumkin boʻlgan tamoyildir. Lotinchada bu “primum non nocere” deb nomlanib, oʻzbekchada “avvalo – zarar yetkazma” deb tarjima qilinishi mumkin. Ushbu tamoyil shifokorlar faoliyatining bosh mezoni hisoblanadi.

Bunda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan birinchi savol – bu yerda “zarar” tushunchasi biotibbiyot sohasi bilan qanday aloqada ekani, undan keyin bu tushunchaning shifokor faoliyatida, uning bemorlar bilan oʻzaro munosabatida qanday aks etishi toʻgʻrisidadir. Shifokor tomonidan bemorlarga quyidagi koʻrinishdagi

zararlar keltirilishi mumkin:

Harakatsizlik oqibatida kelib chiquvchi zarar. Yordamga muhtoj bo'lganlarga yordam bermaslik oqibatida kelib chiquvchi zarar.

Ehtiyotsizlik, yoki g'ayir niyatda yetkazilgan zarar. Shaxsiy manfaatlarni ko'zlab atayin yetkazilgan zarar.

Ishonchsiz, o'ylamasdan, yoki tajribasiz xatti-harakatlar oqibatida yetkazilgan zarar.

Muayyan vaziyatda obyektiv shart-sharoit talabi bilan yetkazilgan zarar.

Ushbu zarar turlarining har biri turlicha baholanishi mumkin. Ulardan birinchisi – yordam ko'rsatmaslik – muayyan vaziyatlarda qonunbuzarlik hisoblanadi va bu shifokorga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy ish ochilishi bilan yakunlanishi mumkin. Shunday ekan, masalaning bu tomoni nafaqat axloqiy, balki yuridik normalar tomonidan tartibga solinadi.

Bioetikaga oid muhokamalar, ayniqsa hayvonlar etikasi va atrof-muhit etikasi axloqiy maqom va axloqiy himoya masalalari bilan aloqadordir. Bunday eng muhim savol, misol uchun, barcha hayvonlar axloqiy maqomga ega va shunday ekan axloqiy himoya qilinuvchi axloqiy jamoatchilikning a'zosimi, yoki ularda hech qanday axloqiy maqom yo'qmi (yoki faqat oliy primatlar, delfin va fillar kabi rivojlangan hayvonlar axloqiy maqomga egami) bo'lishi mumkin. Lekin, agar hayvonlarda axloqiy maqom bo'lmaganda ham, ular axloqiy huquqlarga ega bo'lishmaganda ham ular baribir axloqiy ahamiyatga ega, va bu insonlarning ular bilan xohlagan ishlarini qilishlari mumkin emasligida o'z aksini topadi. Tirik mavjudotga axloqiy maqom berishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'sha mavjudotning ravnaq topishiga xalaqit beruvchi xatti-harakatlardan o'sha mavjudotni muhofaza qilishdir. Misol uchun, axloqiy maqom taqdim etish orqali kishi oliy primatlarni himoya qilishi mumkin, chunki aynan shu maqom ularni keyin sababsiz o'ldirilishdan saqlaydi.

Lekin mavjudotga axloqiy maqom, axloqiy huquqlar va himoya berishning shartlari qanday? Idroksiz va hissiy tabiatga, masalan tropik o'rmonlar, tog'lar va daryolarga axloqiy maqom berish shartlari qanday? Ular ham axloqiy maqomga egami? Ular ham biz uchun muayyan darajada axloqiy ahamiyatga egami? Yoki insonlar inson bo'lmagan mavjudotlar bilan xohlaganicha munosabatda bo'lishlariga ruxsat etilganmi?

An'anaviy tarzda faylasuflar mavjudotlarni ongli va ongsiz, shuningdek, idroksiz va jonsiz mavjudotlarga bo'lishgan va ichki qiymatga va ahamiyatga ega bo'lgan hayvonlarga axloqiy maqomga ega deb hisoblashgan. Faqatgina shunday jonzoatlarni yuridik jihatdan himoya qilish mumkin edi. Shunday ekan, mavjudotning axloqiy himoya panohiga olish va unga axloqiy maqom berishning birinchi sharti sifatida uning ichki, o'ziga xos qadr qimmatini, qiymatini keltirish mumkin. Jonzotning ichki qadr qimmatini ko'rsatuvchi belgi sifatida uning ratsional fikrlash qobiliyati keltirilgan.

Bunday fikrlash tarzi antroposentrizm bo'lib, uni spetsitsizmga ayblash mumkin. Bundan biroz farq qiluvchi qarashga ko'ra xattoki jonsiz predmetlar va tabiat manzaralari ham ichki qiymatga ega. Bunga uning o'ziga xosligi va chiroyi sababchi bo'ladi. Lekin bu nuqtai nazarni kamida ikki tomondan so'roqqa tutish mumkin. Birinchidan, o'ziga xos bo'lish hech qanday axloqiy ahamiyatga ega bo'lmagan jihatdek go'yo. Misol uchun, agar biror kuchuk ikki bosh bilan dunyoga kelganda uni o'ziga xos deb atash mumkin edi, lekin bu o'ziga xoslik uni boshqa kuchuklarga qaraganda alohida axloqiy muhofaza qilish uchun asos bo'lmasa kerak. Qaytanga, uni shunchaki undagi noodatiylikni tadqiq etish uchun himoya qiluvchilar topilishi mumkin. Lekin bu kuchukning o'ziga xosligi uning axloqiy ahamiyatiga egaligini anglatmaydi, balki shunchaki uning olimlar uchun muayyan instrumental qiymatga egaligini anglatadi. Ikkinchidan, biror nima, yoki biror kim "chiroyli" deydgan bo'lsak, birinchi o'rinda o'sha narsaning ichki qadr-qimmatini emas, balki o'sha narsaning qaysidir bir ongli mavjudot uchun bo'lgan qadr qimmatini, uning kimningdir ko'z oldida chiroyli ekanini ta'kidlagan bo'lamiz va bu ham narsaning o'ziga xos, ichki qiymati mavjud emas, u shunchaki boshqalar uchun qadr-qimmat va bu ham instrumental qiymat ekanini anglatishi mumkin. Bunday dalillashga ko'ra, misol uchun AQSHdagi Katta Kanyon himoya qilinishi kerak, shunki u uni ko'rishga borgan kishilarning ko'pchiligida hayrat va zavq hislarini tug'dirib, ularni o'zlarini yaxshi his qilishlariga sababchi bo'ladi.

«Bioetika va tibbiyot etikasidagi eng muhim yondashuvlardan biri Tom Bosham va Jeyms Chayldresslar tomonidan ishlab chiqilgan to'rt tamoyil yondashuvi hisoblanadi. Shundan buyon ular o'z yondashuvlarini rivojlantirishdi va tanqidchilari tomonidan keltirilgan tanqidlarni ham o'z nazariyalarida ko'rib chiqishdi».

To'rt tamoyil yondashuvi, yoki oddiy qilib aytganda, prinsipalizm to'rt universal va tagqurma tamoyillardan iborat bo'lib, ular

- 1) mustaqillik,
- 2) zarar keltirmaslik,
- 3) ezgulik va

4) adolat tamoyillaridir. Ba'zi qoidalar va axloqiy fazilatlar bilan qo'shib hisoblaganda ular axloqiy tafakkurning boshlanish nuqtasi va asosiy tayanchi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bosham va Chayldress fikricha: "Bunday umumiy axloq axloqiy qoidalarni hurmat qiluvchi va axloqiy normalar doirasida yashashni maqsad qilgan har bir kishiga tegishli bo'lgan axloqdir. Umumiy axloq bu boshqa axloqlar bilan solishtirilishi mumkin bo'lgan oddiy bir axloq ko'rinishi emas. Umumiy axloq barcha joylarda istiqomat qiluvchi barcha xalqlar uchun xos va unda kishi axloqi uning o'ziga tegishli axloq qoidalariga rioya qilishi bilan belgilanadi".

Xususi axloqlar esa aksincha, universal bo'lmagan normalardan kelib chiqadi va

bu turli madaniyatlar, dinlar va muassasaviy manbalardan o'sib chiqqan bo'lishi mumkin. Bunday normalar, umumiy axloqning mavhum va keng ko'lamli tamoyillardan farqli o'laroq, konkret va batafsildir. Bosham va Chayldress xususiylashtirish va muvozanatga solish metodlaridan foydalangan holda mavhum va tafsilotlardan holi bo'lgan universal tamoyillarni xususiy axloq ko'rinishlaridan to'plangan empirik ma'lumotlar bilan boyitishgan.

Xulosa: Umuman olganda, xulosa qilish mumkinki, insoniy bo'lmagan mavjudotlar va tabiat bilan axloqan muqobil munosabatga kirishishda kishi o'zining qilmishining turli oqibatlari va shart-sharoitlariga e'tibor berishi talab qilinadi. Qisqasi, fikrimizcha bunda biz uchun yo'riqnoma bo'luvchi normalar qatoriga atayin zarar keltirmaslik (hayvonlarni ko'ngilochar maqsadlarda qiynamaslik, chorva mollarini yetishtirishni iloji boricha qisqartirish) hamda iloji boricha tabiatni o'z holicha saqlash (misol uchun, havo va suv ifloslanishini oldini olish, tropik o'rmonlarning qisqarishini oldini olish) kabilarni kiritish mumkin. Hans Yonas aytganidek, tabiat bilan muloqotda mas'uliyat hissini tuyishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Benjamin R. Informed refusal: toward a justice-based bioethics // Science, technology & human values. – L., 2016. – Vol. 41, N 6. – P. 967–990.
2. Henk A.M.J. Potter's notion of bioethics. – Mode of access: <http://muse.jhu.edu/journals/ken/summary/v022/22.1.ten-have.html>
3. Sajoo A.B. Negotiating virtue: principlism and maslaha in muslim bioethics. – Mode of access: <http://sir.sagepub.com/content/43/1/53.full.pdf+html>
4. Egorov N.S., Oleskin A.V., Samuilov V.D. Biotexnologiya: Problemy i perspektivy. - M.: Vysshaya shkola, 1987. 159 s.
5. Leon R. Kass Nestareyushie tela, schastlivye dushi: Biotexnologii v pogone za sovershenstvom // Vyzov poznaniyu: Strategii razvitiya nauki v sovremennom mire. - M.: Nauka, 2004. S.282-308 [Elektron manba]. URL: <http://www.ec-dejavu.net/b-2/Biotechnologies-2.html>.